



## QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

(2019 yil yanvar-fevral)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmi 484,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,3 %ni tashkil etdi.

Shu jumladan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan yanvar-fevral oylaridaq bajarilgan qurilish ishlari hajmi 106,6 mlrd.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 22,0 % hamda o'tgan yilning mos davriga

nisbatan 191,0 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,1 %i yoki 237,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 28,9 % yoki 139,8 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,6 %ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 106,6 mlrd.so'm
- o'sish sur'ati - 191,0 %



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 237,7 mlrd.so'm
- o'sish sur'ati - 103,3 %



### Norasmiy sektor

- hajmi - 139,8 mlrd.so'm
- o'sish sur'ati - 93,6 %

### Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so`m)



2019 yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari Qarshi shahrida jami qurilish ishlaridagi ulushi 23,3%ni tashkil etdi. Bunga sabab:

- "O'zshahar Qurilish Invest" MChJ tomonidan arzonlashtirilgan ko'p qavatli uy-joylarning qurilishi;


- "Vatanparvarlar bog'ining" qurilishi;

Keyingi o'rinlarda Koson tumani bo'lib, tumanda

- "Koson dehqon bozorining" rekonstruksiyasi;

- Tumanda joylashgan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan qurilish ishlarini o'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'proq bajarilishi hisobiga.


## Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Koson tumanida kuzatildi (171,9%) bo'ldi. O'sish sur'atining yuqori bo'lishiga sabab:

- "Koson neft - gaz qidiruv ekspeditsiyasi" sho'ba korxonasi tomonidan qidiruv burg'ulash ishlari ko'proq bajarganligi bilan bog'liqdir.


Keying o'rinlarda esa Shahrisabz va Qarshi shahrida kuzatildi, ya'ni 124,8 % va 111,2 %ga o'sdi.



**Qurilish ishlari hajmi**

	Yirik qurilish tashkilotlari (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar va mikrofirmalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Norasmiy sektor (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>106,6</b>	<b>191,0</b>	<b>237,7</b>	<b>103,3</b>	<b>139,8</b>	<b>93,6</b>
Qarshi sh	18,5	215,4	80,6	105,2	13,6	92,4
Shahrisabz sh	16,1	179,2	10,4	102,9	4,3	97,9
<i>tumanlar:</i>						
G`uzor	3,1	96,7	6,3	102,7	10,3	95,2
Dehqonobod	-	-	2,7	103,9	10,4	96,0
Qamashi	-	-	6,7	102,3	2,9	93,0
Qarshi	-	-	32,2	103,2	9,0	93,6
Koson	62,7	249,1	16,6	106,8	10,4	94,6
Kitob	0,4	96,7	15,5	101,7	12,1	92,1
Mirishkor	-	-	2,4	101,0	10,0	91,9
Muborak	3,2	42,6	14,9	102,7	5,8	95,4
Nishon	0,9	50,9	4,6	104,1	3,0	97,2
Kasbi	0,3	4,6 m	7,7	105,6	10,4	93,3
Chiroqchi	-	-	19,4	102,6	17,7	91,8
Shahrisabz	-	-	8,3	101,4	5,2	94,7
Yakkabog`	1,4	-	9,4	103,9	14,7	96,9

## Hududlar kesimida qurilish ishlari




Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 49,1 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik




korxonalar va mikrofirmalarning ulushi quyidagi tumanlarda nisbatan yuqori Shahrisabz, Chiroqchi va Qarshi tumanlarida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Koson tumani hamda Shahrisabz shahriga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 28,9 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Kitob hamda Yakkabog' tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa Qamashi va Nishon tumanlarida qayd etildi.

Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari 357,0 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 40,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan

yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 86,7 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,3 % punktga ko'paydi.

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari jamiga nisbatan ulushi % da



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 467,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 96,6 %ni tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 16,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 3,4 %ni tashkil qildi.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun ma'sul: **A.Isaev**

Aloqa telefoni: **(75) 221-32-47**